E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

O’zbekistonning xalqaro tashkilotlar va davlatlar bilan aloqalarni yo’lga qo’yish jarayoni

Crossref Doi : https://doi.org/10.37547/iqro-volume04-issue01-36

Axmadova Nafisa Axmad qizi
Termiz davlat pedagogika instituti katta o’qituvchisi

Elektron pochta : axmadovanafisa56@gmail.com

Annotatsiya

O’zbekistonning BMT, YEXHT va boshqa xalqaro tashkilotlari o’rtasidagi aloqalar, o’zaro almashinuv, tarixiy-madaniy muloqotlar, o’zaro kelishuv va bitimlar manbalar asosida yoritildi va taxlil etildi. O’zbekistonning Rossiya, Xitoy va dunyoning boshqa yetakchi mamlakatlari bilan o’zaro hamkorligiga to’xtalib o’tildi. O’zaro kelishuvlar asosida ijtimoiy, siyosiy va madaniy, fan va ta’lim sohalarida yutuqlarga erishildi. Keyingi istiqbolli rejalar belgilab olindi.

Резюме

На основе источников освещены и проанализированы отношения между Узбекистаном, ООН, ОБСЕ и другими международными организациями, взаимный обмен, историко-культурный диалог, взаимные соглашения и договоры. Было отмечено, что Узбекистан сотрудничает с Россией, Китаем и другими ведущими странами мира. По обоюдному согласию был достигнут прогресс в социальной, политической и культурной, научной и образовательной сферах. Определены дальнейшие долгосрочные планы.

Resume

Relations between Uzbekistan, the UN, the OSCE and other international organizations, mutual exchange, historical and cultural dialogue, mutual agreements and treaties were covered and analyzed on the basis of sources. It was noted that Uzbekistan cooperates with Russia, China and other leading countries of the world. On the basis of mutual agreements, achievements have been made in the social, political and cultural, scientific and educational spheres, and further long term plans have been identified.

Kalit so’zlar

Diplomatik munosabatlar, xalqaro hamkorlik, BMT, YEXHT, SHHT, Rossiya, Xitoy, AQSh, Markaziy Osiyo, xorijiy mamlakatlar, diplomatiya, elchixona, iqtisodiyot, siyosat, fan va ta’lim, ilmiy- texnikaviy, sog’liqni saqlash, sayyohlik, turizm, madaniyat.

Ключевые слова

Дипломатические отношения, международное сотрудничество, ООН, ОБСЕ, ШОС, Россия, Китай, США, Центральная Азия, зарубежные страны, дипломатия, посольство, экономика, политика, наука и образование, наука и техника, здоровьесбережение, туризм, туризм , культура.

Keywords

Diplomatic relations, international cooperation, UN, OSCE, SCO, Russia, China, USA, Central Asia, foreign countries, diplomacy , embassy, economy, politics, science and education, science and technology, health, tourism, culture.

O`zbekiston mustaqil davlat maqomiga ega bo`lishi bilanoq xalqaro hamjamiyat bilan teng huquqli, suveren hamkorlik qilish yo`lini tutdi. Bu borada hamkorlikning xalqaro e`tirof etilgan konstitutsiyaviy hamda huquqiy asoslari shakllantirildi. Bugun O`zbekiston jahon hamjamiyatida o`z o`rni va so`ziga ega bo`lgan davlatga aylandi. O`zbekiston jahonning qator mamlakatlari va xalqaro tashkilotlari bilan turli sohalarda hamkorlik qilmoqda, ko`plab yirik tashkilotlarning teng huquqli a`zosidir.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov boshchiligida O'zbekiston qisqa vaqt ichida dunyoning ko'plab yetakchi davlatlari bilan o'zaro manfaatli aloqalarni o'rnatishga muvaffaq bo'ldi va 1990-yillarning o'rtalariga kelib 165 davlat mamlakatimizni tan oldi[1]. Hozirgi kunda ularning 133 tasi bilan diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. Toshkentda 44 davlat va 20 dan ortiq yirik xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalari akkreditatsiyadan o'tgan. O'z navbatida, O'zbekiston Respublikasining 46 ta diplomatik va konsullik vakolatxonalari xorijiy davlatlarda va xalqaro tashkilotlar huzurida faoliyat yuritadi, shu jumladan, BMT ning Nyu-Yorkdagi vakolatxonasi, BMT ning Yevropa Byurosi va Jenevadagi boshqa xalqaro tashkilotlar. O'zbekiston 100 dan ortiq xalqaro tashkilotlarga, jumladan, BMT, SHHT, MDH va boshqalarga a'zo. O'zbekiston to'laqonli asosda eng nufuzli xalqaro tashkilotlarning a'zosi bo'lib, yirik bank, moliya organlari bilan hamkorlik qiladi. Nodavlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi, respublikada 88 ta xorijiy vakolatxonalar akkreditatsiyalangan, 24 ta hukumatlararo va 13 ta nodavlat tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda[2].

O`zbekiston Respublikasi poytaxti Toshkent bugungi kunda xalqaro nufuzli tashkilotlar ishtirokidagi xavfsizlik, barqarorlik, tinchlik va hamkorlik masalalari bo`yicha muhim xalqaro anjumanlar markaziga aylandi. Ayniqsa, xalqaro tashkilotlar – YEXHT, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (EKO) bilan teng huquqli a`zo sifatida, Yevropa Ittifoqi, NATO bilan "Tinchlik yo`lida hamkorlik" dasturi doirasidagi aloqalari rivojlandi.

O`zbekistonning tashqi siyosiy yo`li barcha xalqaro tashkilotlar bilan har tomonlama hamkorlik qilishga yo`naltirilgan. O`zbekiston Respublikasi bugungi kunda 40 dan ortiq xalqaro tashkilotlar bilan aloqa o`rnatgan[3].

O`zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi keng quloch yozib borayotganliga uning xalqaro maydonda obro`si oshayotganligidan dalolat beradi. Bunday xayrli holatning vujudga kelishida asosiy omillar O`zbekistonning o`z hududida huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishga jiddiy kirishganligi, bozor iqtisodiga o`tishda sezilarli natijalarni qo`lga kiritganligi, mamlakatda millatlararo totuvlikni va barqarorlikni ta`minlaganligidir[4].

Mustaqillik davridagi tashqi siyosatimizda YEXHT ning boy tajribasi, imkoniyatlaridan foydalanishga ham alohida ahamiyat berildi. Xalqaro tashkilotlar orasida birinchilardan bo`lib YEXHT xavfsizlik uchun hamkorlik kontseptsiyasini ham strategik siyosat darajasiga ko`tardi.

O`zbekiston YEXHT ning 1975 yilgi Xelsinki yakunlovchi akti, shuningdek, ya`ni Yevropaning Parij Hartiyasi va boshqa muhim xalqaro hujjatlarga qo`shilgan. O`zbekiston bilan YEXHT o`rtasidagi hamkorlik samarali ravnaq topmoqda.

O`zbekiston YEXHT ning asosiy tamoyillaridan biri bo`lgan xavfsizlik yaxlitligini to`la qo`llab-quvvatlamoqda. O`zbekiston Birinchi Prezidenti I.A. Karimov YEXHTning Xel'sinki (1992 yil), Budapesht (1994 yil), Lissabon (1996 yil), Istanbul (1999 yil) sammitlarida qatnashdi va o`z nutqlarida taklif va tashabbuslarni ilgari surdi. Bularga Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash, mojarolarni bartaraf etish, narkotrafik va qurol-yarog' kontrabandasiga qarshi kurashda YEXHT ning ishtrokini kengaytirish, xalqaro terrorizmga qarshi kurash markazini tashkil etish masalalari kiradi[5].

1992 yilning fevralida bo`lib o`tgan a`zolik to`g'risidagi hujjatni imzolash marosimida O`zbekiston Prezidenti alohida ta`kidlab o`tganidek, Yevropa bilan teng huquqiy aloqalar o`rnatilishi O`zbekiston va uning mustaqilligi uchun muhim hayotiy ahamiyat kasb etadi. O`zbekiston YEXHT ning asosiy tamoyillaridan biri bo`lgan xavfsizlik yaxlitligini to`la qo`llab-quvvatlamoqda.

1999 yil 25 oktyabrda I.A. Karimov YEXHT ning ko`p sonli millatlar ishi bo`yicha oliy komissari Maks Van Der Stul bilan uchrashdi. Uchrashuvda O`zbekistonning YEXHT bilan aloqalarini yanada rivojlantirish bilan bog'liq masalalar yuzasidan fikr almashildi. O`zbekiston Birinchi Prezidenti I.A. Karimov 1999 yil 18–19 noyabrda Istanbulda bo`lib o`tgan YEXHT ning sammitida dunyo hamjamiyatining e`tiborini yana bir bor Markaziy Osiyo xavfsizligi va barqarorligiga tahdid solayotgan aqidaparastlik, ekstremizm, terrorizm va giyohvandlik moddalarini noqonuniy aylanishi kabi masalalarga qaratdi hamda xalqaro terrorizmga qarshi kurashish markazini tuzish taklifi bilan chiqdi[6].

Hozirgi kunda Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik tashkiloti xalqaro mintaqaviy tashkilotdir. Bu tashkilot tarkibiga jug'rofiy jixatdan Vankuverdan Vladivostokkacha bo`lgan hududda joylashgan 55 mamlakat a`zo bo`lgan xavfsizlik masalalari bilan shug'ullanuvchi UmumYevropa tashkilotidir[7].

I.A.Karimov o`z nutqida terrorizmga qarshi kurashuvchn xalqaro markaz tashkil qilish maqsadga muvofiq ekanligi va mazkur markazning asosiy vazifasi terrorizmning ko`rinishlariga qarshi kurashishgina emas, ayni paytda, xalqaro terrorizmni moliyaviy ta`minlaydigan, qo`llab-quvvatlaydigan, uni boshqaradigan manbalarga karshi kurashishdaya iborat bo`lmog'i kerakligani ta`kidladi. O`zbekiston Prezidentining ushbu taklifi 2001 yilning 11 sentyabrida N'yu-York shahrida yuz bergan terroristik hurujdan so`ng yanada dolzarblik kasb etadi.

2003 yil 21 noyabrda YEXHT ning amaldagi raisining Markaziy Osiyo bo`yicha shaxsiy vakili Marti Axtisaari O`zbekistonda bo`lib, I.A. Karimov bilan uchrashdi. Uchrashuvda O`zbekiston – YEXHT hamkorligini yanada rivojlantirish masalalari hamda tomonlarni qiziqtirgan dolzarb xalqaro va mintaqaviy muammolar yuzasidan fikr almashildi.

O`zbekistonning jahon hamjamiyati safidan munosib o`rin egallagani, dunyoga mustaqil davlat sifatida tanilgani hamda o`zining qator tinchlikparvar taklif, g'oya hamda tashabbuslari, faol tashqi siyosati endilikda juda yuksak minbarlarda e`tirof etilayotgani bor haqiqatdir.

Bundan roppa-rosa 20 yil avval – 1992 yilning 2 martida mustaqil O`zbekistonning davlat bayrog'i N'yu-Yorkdagi BMT bosh qarorgohi oldidagi dunyo mamlakatlari bayroqlari orasida

hilpiray boshladi. Bu xalqimiz, ota-bobolarimizning asriy orzusi bo`lgan – O`zbekiston mustaqilligining xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olinishining isboti edi. 1993 yilning avgust oyida esa poytaxtimizda BMTning vakolatxonasi o`z faoliyatini boshladi. Bu esa tashkilot va uning ixtisoslashgan muassasalari bilan amaliy aloqlarni yo`lga qo`yish hamda uni rivojlantirish uchun xizmat qilmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida O'zbekiston xalqaro va mintaqaviy muammolarni muhokama qilish va hal qilishda faol ishtirok etadi, xususan O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov BMT ning 48-chi (1993-yil sentabr), 50-chi (1995-yil oktabr) chiqishlarida, 55-sessiya (2000-yil sentabr) va BMT Bosh Assambleyasining "Ming yillik rivojlanish maqsadlari"(2010) sammitida Markaziy Osiyoning dolzarb muammolariga e'tibor qaratildi. I.A.Karimov tashabbusi bilan BMT Markaziy Osiyoda xavfsizlik masalalarini tinch yo'l bilan hal qilishga qaratilgan bir qancha qonunlarni qabul qildi. Shunday qilib, 1993-yilda BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida so'zga chiqqan I.A.Karimov Markaziy Osiyoni yadrosiz zona deb e'lon qilishni taklif qildi. Bu taklif Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari-Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston va BMT ning boshqa ko'plab a'zolari tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlandi[8].

Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizligining muhim jihati Afg'onistondagi vaziyatdir. O'zbekiston tashabbusi va BMT ko'magida 6+2 guruhi (qo'shni davlatlar: Eron, Pokiston, Tojikiston,Turkmanston, O'zbekiston, Xitoy, Rossiya va AQSH) afg'on muammosi va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash muhokama qilindi. Guruhning 1-yig'ilishi 1997-yilda Nyu-Yorkda, ikkinchisi 1999-yil iyul oyida Toshkentda bo'lib o'tdi. 2008-yil aprel oyida Buxarestda NATO sammitida I.A.Karimov 6+2 tinchlik tashabbusini ushbu guruhga qo'shish va uni "6+3" ga aylantirish bilan birgalikda sa'y harakatlarni birlashtirishga hissa qo'shishi bilan tinchlik tashabbusini qayta boshlash va kengaytirish maqsadga muvofiqligi to'g'risida taklif kiritdi. Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirishda va Afg'onistonni qayta qurishning asosiy donorlari- Hindiston, Yaponiya va boshqa manfaatdor davlatlar yanada samarali hissa qo'shishlari mumkin[9].

Birlashgan Millatlar Tashkiloti – tinchlikni va xalqaro xavfsizlikni qo`llab-quvvatlash, davlatlararo hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan universal tashkilotdir.

Bugungi kunda O`zbekiston Respublikasida BMT ning o`nga yaqin dasturlari faoliyat yuritmoqdalar. Toshkent BMTning Markaziy Osiyodagi forposti sifatida baholanmoqda"[10].

Ma`lumki, BMT ning terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashga qaratilgan 13 ta hujjati ( 11 ta konventsiya, 2 ta protokol) mavjud. Hozirgi kunda O`zbekiston 12 ta ana shunday xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilgan[11].

Tashkil etilganidan hozirga qadar BMT jahon miqyosida xavfsizlik, tinchlik borasidagi kurashuvchi, urushlarni oldini oluvchi va osoyishtalikni ta`minlovchi, barqaror tinchlikni saqlovchi, xalqaro hamkorlikni olib boruvchi tashkilot hisoblanadi. Terrorizm, giyohvandlik, mintaqaviy mojarolar va global ekologik muammolarga qarshi kurashib, jahon siyosatida o`z obro`yi va mavqeini mustahkam holda saqlab kelmokda.

O'zbekiston va BMT hamkorligi hozirgi davrda ham o'zaro izchil va har tomonlama rivojlanib bormoqda. Bunda Prezident Sh. Mirziyoyevning BMT sessiyalarida so'zlagan nutqlari

alohida ahamiyat kasb etadi, zero bu nutqlarda dunyoda yuz berayotgan jarayonlar, Afg'oniston muammosi, Orol muammosiga alohida to'xtalib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yilning 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so'zladi.

Prezidentimiz o'z nutqlarida quyidagilarni ta'kidladilar: "Birlashgan Millatlar Tashkiloti bundan keyin ham xalqaro munosabatlarda hal qiluvchi o'rin tutadi.

O'zbekiston bugungi kunda o'zining tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasiga ustuvor ahamiyat qaratmoqda. Bu – har tomonlama chuqur o'ylab tanlangan yo'ldir.

Biz BMT tomonidan Orol fojiasidan jabr ko'rgan aholiga amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha shu yil qabul qilingan maxsus dastur to'liq amalga oshirilishi tarafdorimiz"[12].

2020-yilning 23-sentabrida O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida ishtirok etdi.

Prezident avgust oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida yoshlar huquqlariga bag'ishlangan Samarqand xalqaro forumi o'tkazilganini eslab, jahon hamjamiyatini **Yoshlar huquqlari to'g'risidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti konvensiyasini** qabul qilish bo'yicha O'zbekiston tashabbusini qo'llab-quvvatlashga chaqirdi. «Bundan tashqari, **Barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishish va inson huquqlarini ta'minlashda parlamentlar rolini oshirish to'g'risidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasini** qabul qilishni taklif etamiz», — dedi Prezident SH.Mirziyoyev[13].

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov NATO/SEAP sammitida 2008-yil aprelda Buxarestda Afg'oniston muammosini faqat harbiy yo'l bilan hal qilib bo'lmaydi, degan fikr bildirdi va 6 +2 aloqa guruhini 6+3 ga aylantirish tashabbusini ilgari surdi. Biz AQSH, Rossiya va NATO vakillarini Afg'onistonda tinchlik o'rnatish va tinchlantirishning asosiy ishtirokchilariga qo'shilishini nazarda tutamiz. Bu tashabbus xalqaro hamjamiyatda katta qiziqish uyg'otdi[14].

O'zbekistonning NATO bilan munosabatlari 1994-yil yanvar oyida Bryusselda qabul qilingan "Tinchlik uchun hamkorlik" dasturida ishtirok etish shaklida bo'ldi.

O'zbekiston hukumati Rossiya, Xitoy, AQSH, Yevropa Ittifoqi, Germaniya, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Hindiston va boshqa yetakchi davlatlar bilan ikki tomonlama munosabatlarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishiga e'tibor qaratadi.

O'zbekiston va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi munosabatlar har ikki davlat tashqi siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Rossiyani eng muhim siyosiy, iqtisodiy va harbiy-texnik salohiyatga ega davlat deb hisoblaydi, shuningdek uning Markaziy Osiyodagi muhim rolini tan oladi. Boshqa tomondan, Rossiya O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi yetakchi o'rinlarini tan oladi.

1992-yilda diplomatik munosabatlar o'rnatilganidan buyon davlatlararo munosabatlar bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda.

2017-yilda O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganiga 25-yil to'ldi. Ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik mustahkam huquqiy asosga ega. Mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar 2004-yil 16-iyunda imzolangan Strategik sheriklik to'g'risidagi shartnoma, 2005-yil 14-noyabrda imzolangan Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma doirasida izchil rivojlanmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish borasida samarali ishlar amalga oshirilayotganini ta'kidladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning taklifiga binoan 2017-yilning 4-5-aprel kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi Prezidentlari Shavkat Mirziyoyev va Vladimir Putin Qo'shma bayonotni imzoladilar. Ikki mamlakat hukumatlari, vazirlik va idoralari o'rtasida hududlararo hamkorlik, mehnat faoliyatini vaqtincha tashkil etish, sog'liqni saqlash, tibbiyot ta'limi va fani, turizm, qurilish, neft-gaz, konchilik, metallurgiya, bankmoliya, bojxona, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalardagi aloqalarni rivojlantirishga doir hujjatlar imzolandi.

“Rossiya biz uchun hayot sinovlaridan o’tgan ishonchli strategik sherik va ittifoqchi bo’lib kelgan va bundan buyon ham shunday bo’lib qoladi. Biz tariximiz mushtarakligini, manfaatlarimiz, ma’naviy va ma’rifiy ildizlarimiz birligini hech qachon unutmaymiz”- deb ta’kidladi Shavkat Mirziyoyev[15].

2018-yilning 19-oktabr kuni Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin davlat tashrifi bilan O’zbekistonda bo’ldi. Uchrashuvda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyeyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin Qo’shma bayonotni imzoladi.

Tashrif doirasida imzolangan 2019-2024-yillarda iqtisodiy hamkorlik dasturi, 2019-2021-yillarda madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlik dasturi, “Suffa” xalqaro radioastronomik observatoriyasini tashkil etish bo’yicha yo’l xaritasi, O’zbekistonda Rossiyaning yetakchi oliy ta’lim muassasalari filiallarini tashkil etish va faoliyatini ta’minlash to’g’risida bitim, to’qimachilik sanoatida hamkorlik to’g’risidagi bitim o’zaro almashildi. Tashrif asnosida turli sohalardagi hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan 20ta hujjat imzolandi[16].

O’zbekiston va Xitoy o’rtasida ham iqtisodiy, siyosiy, fan-ta’lim, madaniyat sohalarida qator hamkorliklar amalga oshirilmoqda. Bu hamkorliklar ikki davlat prezidentlarining davlat tashriflari chog’ida yanada mustahkamlanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning taklifiga binoan 2017-yil 11-15-may kunlari davlat tashrifi bilan Xitoyga bordi[17].

O‘zbekiston – Xitoy hamkorlik munosabatlari keng ko‘lam kasb etib, strategik sheriklik aloqalari yuksak darajaga ko‘tarilmoqda. Mamlakatlarimizning milliy manfaatlari, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, jahondagi nufuzi yuksalishiga xizmat qiladigan bu aloqalar O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov boshlab bergan o‘zaro do‘stlik, mustahkam ishonchga asoslangan hamkorlik negizida taraqqiy etmoqda.

Ushbu safar chog’ida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasi poytaxti Pekin shahrida 14-15-may kunlari bo’lib o’tgan “Bir makon, bir yo’l” xalqaro forumida ishtirok etdilar .

Ushbu davlat tashriflari ikki davlatning o’zaro har tomonlama aloqalarining rivojlanishiga zamin yaratadi.

O’zbekiston AQSH, Fransiya, Italiya va boshqa ko’plab dunyoning yetakchi davlatlari bilan iqtisodiy, fan va madaniyat va boshqa ko’plab sohalarda hamkorlikni yo’lga qo’ygan. Bugungi davrga kelib ushbu hamkorliklar yanada rivojlanmoqda.

O’zbekiston tashqi siyosatida Markaziy Osiyo davlatlari yetakchi o’rinni egallaydi. Hususan, Markaziy Osiyo davlatlari O’zbekiston bilan chegaradosh davlatlar hisoblanadi. Markaziy Osiyo davlatlari va O’zbekiston qardosh xalqlar hisoblanadi. Ularning tili, dini, madaniyati bir biriga juda yaqindir. O’zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o’rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, fan-ta’lim, madaniyat, tibbiyot va boshqa ko’plab sohalarda hamkorliklar yo’lga qo’yilgan va bu aloqalar davlatlararo davlat tashriflari vaqtida mustahkamlanib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, O`zbekistonda tarixiy jihatdan qisqa bir davrda xalqaro munosabatlarni yo`lga qo`yish va rivojlantirish bobida bir necha o`n yilliklarga arziydigan ishlar amalga oshirildi. O`zbekiston o`zining tinchliksevar, yaxshi qo`shnichilik, o`zaro foydali hamkorlikka qaratilgan siyosati va faoliyati bilan butun dunyoga tanildi, jahon hamjamiyatida o`zining munosib o`rnini egalladi, uning mavqei yildan-yilga mustahkamlanib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Независимостъ и возрождение основ националъной государственности. Книга-альбом, посвящённый 20-летию независимости Республики Узбекистан. Ташкент : Ўзбекистон, 2011. (на узб., рус. и анг.яз.). С.144.
2. М.Рахимов, Ш. Рахматуллаев, Р.Турсунова, Р. Назаров “ Очерки новейшей истории Узбекистана”, Т. “Адабиёт учқунлари” 2016. С. 311.
3. Қирғизбоев А. Ўзбекистон Республикасининг Осиё мамлакатлари билан халқаро ҳамкорлиги. – Т.: Фан, 2004. – Б.68.
4. Қирғизбоев А. Ўзбекистон Республикасининг Осиё мамлакатлари билан халқаро ҳамкорлиги…. – Б. 68.
5. Абдуллаев О. Ўзбекистон – Европада Хавфсизлик ва Ҳамкорлик Ташкилоти. // Илм сарчашмалари. – Урганч, 2004. – №1. – Б..36.
6. Каримов И. А. Европада хавфсизлик ва ҳамкорлик ташкилотининг Истамбул саммитида сўзланган нутқ.// Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз, 8-жилд . – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – Б. 85
7. Саидов А. Халқаро ҳукуқ. – Т.: Адолат, 2001. – Б. 181.
8. М.Рахимов, Ш. Рахматуллаев, Р.Турсунова, Р. Назаров “ Очерки новейшей истории Узбекистана”, Т. “Адабиёт учқунлари” 2016. С. 344.
9. М.Рахимов, Ш. Рахматуллаев, Р.Турсунова, Р. Назаров “ Очерки новейшей истории Узбекистана”, Т. “Адабиёт учқунлари” 2016. С. 345.
10. Камаров А. Ўзбекистонннинг БМТ билан халқаро терроризмга қарши кураш сохасидаги ҳамкорлиги // Ўзбекистон ва БМТ: тажриба ва хамкорлик истиқболлари. Конференция материаллари. 2007 йил 16 март. –Тошкент, 2007. – Б. 177.

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

11. Диний экстремизм ва терроризмга қарши курашнинг маънавий – маърифий асослари: Ўқув қўл./ Масъул муҳаррир А.С Очилдиевю – Тошкент, Тошкент ислом университети, 2008. – Б. 201.
12. Shavkat Mirziyoyev “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir” T. “O’zbekiston” 2018-yil, 246-249-betlar.
13. https://www.gazeta.uz/oz/2020/09/23/bmt/
14. Фармонов Р, Жўраев К, Рахимов М, Мўминова Ф, Турсунова Р и др “История международных отношений Республики Узбекистан”: коллективная монография. – Т. : УМЭД, 2017. С 39.
15. Sh. Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz” T. “O’zbekiston”- 2017-yil, 381-bet.
16. https://www.gazeta.uz/oz/2018/10/1
17. “Xalq so’zi” gazetasi. 2017-yil 16-may.

WORDLY
KNOWLEDGE